

AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATIDA O'QUVCHIDAGI OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOKORREKSIYASI

Shomirzayeva Ozoda Shomurzayevna
Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Oiladagi nosog'lom psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar hamda ta'lim jarayonida kuzatilayotgan nuqsonlar, o'smirlar va o'smirlar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Mazkur maqolada amaliyotchi psixolog faoliyatida o'quvchidagi oilaviy munosabatlar psixokorreksiya haqida bir qator ilmiy – psixologik mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oila, amaliyotchi psixolog, muhit, o'smir, o'quvchi, tamoyillar, maslahat, ota-ona, farzand.

Bir qator tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, inson odobli yoki odobsiz, olijanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog'lom xulqli bo'lib tug'ilmaydi. Shaxsdagi u yoki bu xildagi xususiyatlar ustanovkalar kishining ijtimoiy hayot faoliyati, uni qurshab olgan ob'ektiv shart – sharoitlar va voqea – hodisalar ta'sirida vujudga keladi. Ushbu shart – sharoitlar va ob'ektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxs xususiyatlarining shakllanishi nafaqat inson organizmining nasliy xususiyatlariga, balki eng avvalo u aloqada bo'lgan ijtimoiy muhitga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun amaliyotchi psixolog tomonidan o'smirning ijtimoiy turmush shart – sharoitlari, ehtiyojlari, dunyokarashi va shaxs xususiyatlaritadkik etilishi korreksion tadbirlarning shakl va tamoyilini belgilab beradi.

O'quvchi-o'smirlarda ijtimoiy muhitga nisbatan bo'lgan deformasiyalashuvning yuzaga kelishi va ularda ijtimoiy pozisiyaning mavjud bo'lmasligi yoki to'satdan yo'qolishligi (maktabdan haydaliq, oilada nosog'lom muhitning mavjudligi, ishidan, yaqin kishisidan mahrum bo'lish) o'z navbatida noqonuniy, noahloqiy pozisiyaning shakllanishiga olib keladi. Ya'ni, turli xil g'ayriqonuniy, noahloqiy guruhlarga qo'shilish, referent guruhlarning tashkil etilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan jinoyatchilik ko'chasiga kira boshlagan o'smir ko'pincha maktabni tashlaydi, o'zicha ishga kirmoqchi bo'ladi, lekin bu borada ta'lim muassasasi pedagoglar nazoratidan tarbiyaviy ta'sirida chetda koladi. Aksariyat xolatda esa umuman foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaydilar.

Xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smir o'quvchilar bilan utkazilgan profilaktik suxbat natijasida shuni aniklashga muaffak buldikki bunday o'smirlar gazeta, jurnal yoki badiiy adabiyotlar o'qimaydilar. O'qiganlarida ham o'ziga xos qiziqishlar (rasmlar, sud materiallari, e'lonlar va

boshqalar) bilan cheklanadilar. Ular teatrta tushish, darslik va badiiy kitoblar o'qish bo'yicha ko'rsatkich darajasi ancha pastdir. Ammo kinoteatr, videobar, diskoklublarga qatnashish darajasi ancha yuqoriligi kuzatiladi. Ushbulardan ko'rinadiki, ijtimoiy foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish, kitob, gazeta o'qish, teatrlarga borish o'smirlarda ijtimoiy foydali, ijobiy pozitsiyalarning va ustanovkalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa o'smirlar va o'smirlar xulqida salbiy pozitsiyalarning va ustanovkalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa o'smirlar va o'smirlar xulqida salbiy pozitsiya va ustanovkalarning shakllanishiga imkoniyat yaratiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy muhit voqea – hodisalari va shart – sharoitlarning o'smirlarga ta'sir etishi ular xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. Amaliyotchi psixolog tomonidan o'smir atrofidagi ijtimoiy muhitdagi voqea – xodisalar va shart – sharoitlar ijobiy ta'sir etishi aniklansa korreksion tadbirlar avvalo o'smir xulqidagi ijobiy yunalishdagi xulkiy ustanovkalarni shakllantirishga yunaltiriladi. Xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smirlar va o'smirlarning ijtimoiy muhiti sog'lom xulqli o'smirlar va o'smirlar ijtimoiy muhitidan o'ziga xos tor doiradagi dunyoqarashga egaligi, nizoli vaziyatlar doirasining kengligi, qat'iy hayotiy pozitsiyaning, kelajakka nisbatan ijobiy qarash, maqsad va intilishlarning yo'qligi va shu kabi bir qator jihatlar bilan farqlanadi. Quyida biz ushbu jihatlarini kengroq taxlil qilishga harakat qilamiz.

1. Xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smirlarning oiladagi dolzarb ehtiyojlari kondirilishiga tushkinlik.
2. Tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlardagi nizoli vaziyatlar o'smirlar jamoasi tomonidan tan olinmasligi past sosiometrik statusga ega bulish o'smirlarda o'smir emosional soxasida buzilishlarga olib keladi.
3. Xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smirlarning kognitiv soxaning torayishi kuzatiladi ya'ni o'smir atrof muxitni uziga dushman deb biladi (uzgalar fikrini eshitmaydi).
4. Xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smirlar xudkidagi uzgarishlarni kelib chikishiga katta yoshdagi kishilar va ota – onalar, pedagoglarning e'tiborsizligi holati. Bunda o'z nojoiz harakatlarining javobsiz qolishligini, kattalar tomonidan ma'qullanishligini xis etgan o'smir nizoli vaziyatlarga barham berishda nojoiz yo'lni tanlaydi. Chunki u ota – onasidan, atrofda gilardan jazo olmasligini biladi. Bu esa o'smirlarga yangi – yangi noqonuniy harakatlarni bajarishga imkoniyat eshigini ochib beradi. Xulqi og'ish kuzatilmagan o'smir o'quvchilar esa o'zlarining jazolanishlarini bilgan holda noqonuniy xatti – harakatlar qilishdan o'zlarini tiyadi. Chunki, ular muhitida noqonuniy harakatlarni qoralash psixologiyasi mavjud bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, nosog'lom muhitga tushib qolgan o'smir asta sekin ushbu muhitning tartib qoidalariga bo'ysina boshlaydi. Oqibatda o'smirda ushbu mikromuhitga xos bo'lgan salbiy hislatlar paydo bo'ladi. Bu o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishida ijtimoiy muhit shart – sharoitlarining o'rni, ta'siri katta ekanligini ko'rsatadi. E'tiborliroq bo'lib qaraganda, shaxs tipi, uning ma'naviy – axloqiy jihatdan barkamolligi ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam

beradi. Ma'naviy ahloqiy jihatdan sust rivojlangan va shaxs tipidagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) esa o'smirlar va o'smirlarda nizoli vaziyatlarda xulq og'ishning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Amaliyotchi psixolog notinch oilalar bilan ish olib borishda oilaning o'smirlarga munosabati va nosog'lom muhitni yuzaga kelishini o'rganadi. Ota – onalarga farzand tarbiyasi yuzasidan psixologik – pedagogik maslahatlarni berib boradi, psixologik savodxonlik darajasini kutarish maksadida psixologik treninglar utkazadi. Oilani psixologik qo'llab quvvatlaydi va amaliy yordam ko'rsatadi. Psixolog notinch oilalar bilan ishlashda korreksion faoliyati quyidagi bosqichlar asosida ish olib boradi.

Birinchi bosqich. Ota – onalar bilan muloqot o'rnatish. Hamkorlik qilish va ularda ishonch hosil qilish. Ota – onalarni maktabga taklif etish. O'smirning yaqin qarindoshlari bilan tanishish. Agar ota – onalar psixolog bilan aloqa qilishni xohlasa 2 – bosqichga o'tadi.

Ikkinchi bosqich. Oilani o'rganish. Ota – onalar haqida ma'lumotlar yig'adi. Oila muhitini, yashash sharoitini, moddiy ta'minlanganligini o'rganadi. O'smirning uyiga borish, maslahat berish, suhbat va anketalar o'tkazish.

Uchinchi bosqich. Notinch oilaning kelib chiqish sabablarini o'rganadi. Ijtimoiy pedagogik va psixodiagnostik ishlarning natijalarini tahlil qiladi.

To'rtinchi bosqich. Notinch oilalar va ularning farzandlari bilan ishlashda usullar tanlash va saralash.

Amaliyotchi psixolog tomonidan o'smirlar bilan o'tkaziladigan psixokorreksion tadbirlarga o'smirning yaqinlari (buvisi, oppoqisi, xola va tog'a, amaki, do'stlari) o'smir uchun ahamiyatli bo'lgan insonlarni jalb etilishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan sabablardan kelib chiqib tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ishlashda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozim.

O'smirlarda ijobiy xulq – atvor va xarakter xislatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. Amaliyotchi psixolog tomonidan tarbiyasi "qiyin" o'smirlar bilan ishlashda individual korreksion tadbirlar amalga oshirilishi o'smir shaxsini pozitiv o'zgarishlarga yo'naltirish hamda o'zidagi ijobiy o'zgarishlarni motivasiyalashtirish imkoniyatini beradi.

1. Amaliyotchi psixolog tomonidan o'smirlarning individual sifatlardagi o'zgarishlarning dinamikasini aniqlash.
2. O'smirlar bilan o'tkaziladigan individual va guruxiy korreksion tadbirlar majmuasini aniqlash.
3. Psixologik korreksiyalar avvalo o'smirlarning shaxsiy emosional va kognitiv soxalardagi buzilishlarni korreksiyasiga yo'naltiriladi.

4. Amaliyotchi psixolog tomonidan “tarbiyasi «qiyin»” o‘smirlarning qiziqishlari, qobiliyat va iqtidor hususiyatlari birlamchi diognostika asosida aniqlanadi, zaruriy amaliy tavsiyalar belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dadaxonov M. Oilada o‘smir tarbiyasining psixologik xususiyatlari. Tosh., O‘zbekiston., 1980 y.
2. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi., Tosh., 2004 y.
3. Ziyonet.uz